

UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLAR:
TIL, TA'LIM VA MADANIYAT
ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI

RASM ISHLASHDA RANG VA BO'YOQLARDAN FOYDALANISH.

Alisher Latipovich Shirinov

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Tarbiyachi-pedagog rasm ishlashni, mustaqil kompozitsiya tuzishni juda yaxshi bilishi kerak. Bunday rasm ishlashni eng oson yo'li o'qituvchi tomonidan sinf doskasida ko'rsatib bergen syujet elementlaridan foydalanilgan holda rasm ishlashdir. Chunki, o'qituvchi har bir tematik rasm chizish darsida, shu mavzu bo'yicha bir necha elementlar ko'rsatadi. Talabalar undan ijodiy foydalanib, mustaqil tematik kompozitsiya tuzadilar.

Kalit so'zlar:ijodiy, rasm, rang, o'qituvchi, talaba, pedagog, manzara, akvarel, tabiat.

Ma'lumki, tabiat va turmushdagi barcha predmetlar biron-bir yoki bir necha rangga ega bo'ladi. Oddiy bir dona toshda oq, qora, ko'k, yashil va xokazo ranglar bo'ladi. Lekin shunday predmetlar ham borki, ular bir necha ranglar aralashuvida bo'ladi. Lekin biz ularni bir rang nomi bilan ataymiz.

Masalan, barg biz uni yashil deymiz, ammo unda yashil, zangor, sariq, oq, qizil kabi ranglar ham bor bo'ladi.

- Bir tup olma daraxtini tanasi qo'ng'ir, bargi yashil, mevasi sariq, qizil kabi ranglarda qo'rindi.

Biron manzarani kuzatsangiz uzoq-uzoqlardagi tog'lar jigarrang, qo'ng'ir, daraxtlar yashil, ko'k, zangor, binafsha, ularni tanalari qo'ng'ir, yer jigarrang, texnika vositalari qora, kulrang kabi ranglarda ko'rindi. Ko'rrib turibtiki, tabiat va turmushdagi narsalar rangi turlicha. Ularni o'z shakli va rangida to'g'ri tasvirlashga eng qulay bo'yoq akvareldir. Ammo, akvarel bilan rasm chizish uchun, eng avval narsa predmetlar rangini, uni qaysi rangdagi bo'yoq bilan tasvirlash lozimligini bilib olinishi zarur.

Akvarel bo'yog'i tabiatdagi hamma ranglarni ifodalay oladi. Ammo, akvarel bilan rasm ishlash uchun maxsus (akvarelda rasm ishlashga moslashtirilgan) qog'oz, mo'yqlam, toza cyv, bo'yoq aralashtirish uchun politra tayyorlash lozim.

Ma'lumki, qog'ozlar turlicha bo'ladi. Akvarel uchun yuzasi g'adir-budir, oq, qalin, bo'yoq va suvni yaxshi ushlaydigan bo'lishi kerak. Buning uchun 12 formatdagi "Akvarel" markasi bilan chiqarilgan papkadagi qog'ozlar juda yaroqli hisoblanadi. Akvarelda ishlash uchun nafis, bo'sh, yog'li va oq bo'lмаган qog'ozlar yaramaydi.

Akvarel buyoqda rasm ishlash uchun maxsus yumshoq, uchli, olmaxon, suvsar yungidan tayyorlangan mo'yqalamlardan foydalaniladi. Mo'yqalamni suvga tiqib, uni silkitsangiz, uni uchi qalam uchi holatiga kelishi lozim.

Agar rasmni kattaroqqog'ozda ishlanadigan bo'linsa, katta dumaloq mo'yqalamlardan foydalaniladi. Katta mo'yqalam rasm ishlovchiga ko'proq miqdorda bo'yoq olish imkonini beradi, shuningdek, katta mo'yqalam bilan bo'yoqni surtilganda va yoyilganda qog'oz yuzida kamroqharakatda bo'ladi. Bu qog'ozni titilib ketishini oldini oladi.

Akvarelda rasm ishlash qalamda rasm ishlashni davomi sifatida, rasmi ishlanadigan narsani, natyurmortni yoki obyenktini (joyni) e'tibor bilan kuzatib, uni qalamda chizikli tasvirini yaratiladi. So'ngra uni xo'llab olinadi va asta yuqorida quyiga tomon lokal ranglarni berish boshlanadi. Bo'yoqlar ustma-ust 3-4-martagina beriladi, bo'yashni so'nggi boskichlari naturalarni haqiqiy rangi, yorug'-soyalarni ishlab olinadi. Ustma-ust bo'yoq berilganda albatta oldingi bo'yoqni qurib olishini

**UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLAR:
TIL, TA'LIM VA MADANIYAT
ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI**

ta'minlanmog'i zarur. Bo'yoq bilan ishlashda rasm taxta tikroq 30-40oqiyalikda tutiladi, bu bo'yoqlarni to'planib qolishidayi saklaydi. Qog'ozga qo'yilgan bo'yoqlarni bir tekisda bo'lishini ta'minlaydi. Rasm uchun beriladigan bo'yoq - rang avval palitrada tayyorlab olinadi. Shuningdek bir o'ringa berilgan rangni almashtirishda mo'yqalam yaxshilab yuviladi. Rasm tayyor bo'lgach, uni quritishga qo'yiladi. Umuman bo'yoq bilan ishlaganda imkoniyagi boricha tiniq va ochroq rang berilishi lozim. Bu rang ustidan beriladigan 2-nchi va 3-nchi ranglarni yaxshi ifodalanishiga, rangni to'yinganligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Akvarel va umuman bo'yoq bilan ishlashga o'rganish asosan qayta-qayta mashq kilish evaziga erishiladi. Har bir rasm chizishga qiziqadigan va rassom bo'lishni orzu qilgan kishi eng avval qo'lidan qalamni qo'ymasligi va rasm chizishni biron kun kanda qilmasligi kerak. Dasglabki mashqlar bir rangni ko'pgina tuslarini topishdan boshlanadi yoki bir xil rangda rasmlar ishlashdan iborat bo'ladi.

Bunday rasm ishslash jarayonida yorqin, quyuq, yorug', tiniq yoki juda och ranglarni suv miqdorini ko'paytirish, ozaygirish asosida topishga o'rganiladi. To'q ranglar yaratish uchun suvni kamroq, och ranglar topish uchun suvni ko'proq, ustma-ust 2-3 rangni berish uchun bir necha bor rang quyish, bu ranglarni topishda ham bo'yoqqa qo'shilayotgan cyv miqdorini turlash asosida bo'lishini o'rganib boriladi. Yangi rangni topish uchun qo'shiladigan ranglarni kaysi biridan kuproq, qaysi biridan ozroq olib, ularni bir-biriga qo'shishda ham suv miqdorini to'g'ri tanlanishi maksadga muvofiqdir. Bo'yoq - akvarel bilan ishlaganda albatta sistemalilikni qat'iy talab qilinadi. YA'ni akvarel bilan ishlaganda osondan-qiyinda borish prinsipiiga asoslaniladi. Shu boisdan boshlang'ich mashg'ulotlarda kamroq rangli, lekin bir biridan yaxshigina ko'rinarli farqqiluvchi predmetlar rasmini ishslash tavsiya etiladi.

Shuningdek, rasm chizish mashg'ulotlaridan oldin rangni ko'rish va uni qanday nom bilan atalishi haqida mashqlar o'tkaziladi. So'ngra ranglarni qo'shish, undan yangi rang topish ranglar o'rnini to'g'ri belgilash mashqlari xam olib boriladi. Bunday ma'lumot va ko'nikmalar egallanilgandan so'nggina yakka-yakka predmetlar rasmini ishlashga kirishiladi. Masalan: olma, anor, nok, barg, shoxcha kabilar rasmini alohida-alohida tasvirlash lozim bo'ladi. So'ngra ularni fon asosida biron rangli material ustida tasvirlanishi lozim.

Tabiat manzara elementlarini tasvirlash ham foydadan holi bo'lmaydi. Yakka holdagi terak, chinor, olma, o'rik, tol kabi daraxtlarni yoki qoqi o't, lola, g'o'za kabi o'simliklarni tasvirlash maqsadga muvofiq buladi. Bo'yoq bilan rasm ishslash 4 yoki 5 bosqichda amalga oshiriladi. Eng avval rasmi ishlanadigan narsani chiziqli tasviri qalamda bajariladi, bu 1-bosqich buladi. So'ngra qog'oz qo'llanib, unga fon va predmetning asosiy rangini o'rni topiladi, bu 2-bosqich bo'ladi. Bo'yoq biroz qurigach asosiy ranglar beriladi, bu 3-bosqich bo'ladi, keyingi bosqichlarda yorug'-soyalar, predmetni o'ziga xos xususiyati va xarakterini ifoda etuvchi ranglar beriladi.

Shu o'rinda bo'yoq bilan ishlashga xos narsani, ya'ni natura yoki joy-o'rin albatta ko'rish gorizontidan pastda bo'lishi lozim, agar ko'rish nuqtasi natura markaziga tushib qolsa, predmet hajmsiz yassi holda kurinib qoladi, bu rasm chizishni qiyinlashtiradi. Agar qush rasmi ishlansa, uni eng avval ko'rish nuqtasidan pastda va o'ng yoki chap tomonga qo'yilishi lozim. Shundagina qush yerda yoki biron butoq ustida o'tirgan holda va gavdasini to'la tasvirlash imkoniyati yaratiladi.

Manzara yoki tematik (syujetli) kompozitsiya ustida ishslash va rasm chizish ham chiziqli tasvir yaratib, uni bo'yoq bilan ishlashga tayyorlanadi (qog'oz xo'llab olinadi), sungra asosiy ranglar) ni o'rni topiladi. Keyingi bosqichlarda asosiy ranglar, yorug'-soyalar ishlanadi.

Bunday rasmlar ham 4-5 bosqichda ishlanadi. Syujetli tematik rasm ishslash asosan kurgan bilgan voqealari hodisalar, o'qigan kitoblar va tevarak-atrofdagi turmush va hayot hodisalari asosida rasm

**UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLAR:
TIL, TA'LIM VA MADANIYAT
ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI**

ishlashdan iborat bo‘ladi. Bunday rasm ishlash bo‘lajak pedagog - tarbiyachilarni mustaqil ijodiy rasm ishlashga va bolalarga ijodiy rasm ishlashlarini o‘rganishga yo‘l-yo‘riklar beradi.

Tarbiyachi-pedagog rasm ishlashni, mustaqil kompozitsiya tuzishni juda yaxshi bilishi kerak. Bunday rasm ishlashni eng oson yo‘li o‘qituvchi tomonidan sinf doskasida ko‘rsatib bergen syujet elementlaridan foydalanilgan holda rasm ishlashdir. Chunki, o‘qituvchi har bir tematik rasm chizish darsida, shu mavzu bo‘yicha bir necha elementlar ko‘rsatadi. Talabalar undan ijodiy foydalanib, mustaqil tematik kompozitsiya tuzadilar.

Bo‘yoq bilan ishlashni o‘rganishni eng oson yo‘llaridan yana biri bo‘yoqda badiiy bezash bo‘yicha rasm ishlashdir. Chunki, tasviriy san’atni bu bo‘limi ko‘proq naqsh va mustaqil rang kompozitsiyasidagi bezatish ishlaridan (devoriy gazeta, otkritka kabilar) iborat bo‘ladi. Bunda har bir element bir xildagi rangni talab qiladi.

Naqsh chizishda esa har bir bo‘yok o‘rni belgilab olinadi va bu o‘ringa shu bo‘yokni o‘zi tiniqholda beriladi.

Adabiyotlar

1. Botirov, J. S., Bakaev, S. S., Avliyakulov, M. M., Shirinov, A. L., & Abdullaev, S. S. (2021). The same goes for art classes in private schools specific properties. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol*, 27(2).
2. Shirinov, A. L. (2021). USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN FINE ART. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 59-61.
3. Shirinov, A. L. (2021). Maktabning Eng Yosh O‘quvchilarida Tasviriy San’at Darslarining Ahamiyati. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали*, 1(6), 134-138.
4. Latipovich, S. A. (2021, January). TEACHING OF FOLK APPLIED ART ON THE BASIS OF TRADITIONS" TEACHER-STUDENT". In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 80-83).
5. Азимова, Мухайё Баротовна, and Шерали Наимович Авезов. "Костюмы в миниатюрах Мавераннахра." *Евразийский научный журнал* 2 (2017).
6. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.
7. Азимова, М. Б., Азимов, Б. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ИСКУССТВО РОСПИСИ ТКАНЕЙ. *European science*, (2 (58)), 41-43.
8. Аминов, Акмал Шавкатович, et al. "ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ." *European science* 2 (58) (2021): 77-79.
9. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукров, А. Р. (2021). ОСНОВЫ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (2 (58)), 62-65.
10. Мамурова Д. И. и др. УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ ПО РЕШЕНИЮ РАЗЛИЧНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 29-31.
11. Ядгаров, Н. Д., & Хакимова, Г. А. (2018). Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана. *Молодой ученый*, (15), 272-275.

**UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLAR:
TIL, TA'LIM VA MADANIYAT
ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI**

12. Хакимова, Г. А., & Кадирова, Н. А. (2021). НАСКАЛЬНАЯ ЖИВОПИСЬ В ПРОИСХОЖДЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 78-80.
13. Jumaev, Qoryogdi, T. R. Sobirov, and Muhayo Baratovna Azimova. "Modern application and decoration art of Bukhara." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.1 (2021): 117-124.
14. SI Ibadullaeva. PAVEL BENKOV'S LEGACY AT THE BUKHARA MUSEUM OF FINE ARTS. *International Engineering Journal For Research & ...*, 2020.
15. МБ Азимова, ШИ Ибадуллаева. XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АҲОЛИ ТУРАР ЖОЙЛАРИИНТЕРЬЕР БЕЗАГИ (ФАЙЗУЛЛА ХўЖАЕВ УЙ - МУЗЕЙИ МИСОЛИДА).
16. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 10, 1-4.
17. Muzaferovna, A. N., Umidullayevna, S. S., & Ilhamovna, I. (2020). Harmonization of types of fabric art processing to students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 176-184.
18. Avliyakulova N. M. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 179-181.
19. Abdurazzokovna R. N., Murotdilloevna A. M. SOME ASPECTS OF THE ORGANIZATION OF THE INDEPENDENT WORK OF THE FINE ARTS STUDENTS //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 83-85.
20. Samadovich, Azimov Sanjar, et al. "THE ESSENCE AND CONTENT OF FOLK AND APPLIED ART OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIA." *European science* 2 (58) (2021): 35-37.
21. Yadgarov, N. (2021). Methods of Building Visual 3D Models Based on Descriptive Geometry. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 242-246.
22. Шукров А. Р. и др. МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ПРОГРАММ НА УРОКАХ РИСОВАНИЯ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 47-50.
23. Yadgarov, N. J. "Methods using the 3ds max package in teaching projection drawing in school." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
24. Азимов, С. С. (2020). Психологические аспекты формирования профессионального мастерства будущих учителей изобразительного искусства. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 105-108.
25. Pirnazarov G. F., Mamurova F. I., Mamurova D. I. Calculation of Flat Ram by the Method of Displacement //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-39.
26. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 4
27. Shadieva S. S., Borieva D. I., Rakimova M. A. The Importance of Agricultural Mapping in Soil Science //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 5-8.

**UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLAR:
TIL, TA'LIM VA MADANIYAT
ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI**

28. Olimov, S. S. (2021). The innovation process is a priority in the development of pedagogical sciences.
29. Олимов, Ш. Ш. (2015). Маънавий-ахлоқий тарбия асослари.(Монография). Т.: “Fan va texnologiya”,-2015, 228.
30. Олимов, Ш. Ш. (2013). Некоторые вопросы организации урока на основании педагогических технологий. *Молодой ученый*, (5), 752-754.
31. Olimov, S. (2020). ТАЪЛИМНИ ТЕХНОЛОГИЯЛАШТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЭЛЕМЕНТИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 2(2).